

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60811000 – O‘simgiliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/p		6et
1.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiylaysi.....</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari...</i>	4
1.2.2.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy vazifaları.....</i>	5
2.	<i>60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumiylaysi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	8
	Kelishuv varag‘i	9

1. 60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60811000–O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqishva yangilash, ular asosida samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

–ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

–oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning otagonalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60811000 – O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) yo‘nalishi “Qishloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalishi bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish, o‘simliklar ximoyasi soxasida amalga oshiriladigan jarayonlarini optimallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish usul va uslublari, o‘simliklar himoyasi va karantini bo‘yicha kasbiy faoliyatida amalga oshiriladigan jarayonlar bo‘yicha masalalar yechimlarini o‘simliklarni himoya qilish qonuniyatları va zamonaviy konsepsiyalari asosida

ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilotlar, agentliklar, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- o'simliklarni himoya qilishning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- o'simliklarni himoya qilish tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- o'simliklarni himoya qilish sohasida qishloq xo'jalik ekinlarini zararli organizmlardan himoya qilish tizimini tashkil etish, himoya qilish samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha o'simliklarni himoya qilish sohasi hamda pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvechisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv.

- ishlab chiqarish

O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) soxasiga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

- boshqaruv qarorni qabul qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:

- qishloq ho'jalik o'simliklari zararli organizmlarining tarqalish xaritasidan foydalanish;

- qishloq xo'jalik o'simliklari zararli organizmlari tur tarkibini aniqlash;

- o'simliklarni kasallik, zararkunanda va begona o'tlardan himoya qilishni tashkil qilish va qo'llash;

- o'simliklar himoyasida samarali va resurstejamkor faoliyatni tashkil etalish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

-ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

-yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

universitet va uning filiallari axborot-maslahat markazlari (extension center) orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha "axborot- maslahat markazi kafedra-qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi" tizimini ishtirok etishi;

-tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish.

-xizmat ko'rsatish sohasi me'yoriy- huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

-qishloq xo'jalik ekinlari kasallik, zararkunanda va begona o'tlariga qarshi bajariladigan tadbirlarni O'simliklar klinikasini tashkil etish orqali bevosita amalga oshirish.

Axborot-tahliliy faoliyat:

- o'simliklarni himoya qilish sohasida qarorlarini qabul qilish uchun qishloq xo'jalik ekinlarini zararli organizmlardan himoya qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- o'simliklarni himoya qilish sohasi faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, ilmiy tadqiqot institatlari, markazlari va agentliklarning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- ilmiy tadqiqot institatlari, markazlari va agentliklarning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- o'simliklarni himoya qilish sohasidagi qarorlarining samaradorligini baholash.

- agrobiosenzlarda zararli organizmlar tarqalish xaritasini tuzish;

- o'simliklarni zararli organizmlardan uyg'unlashgan himoya qilish tizimini ishlab chiqish;

- qishloq xo'jalik ekinlari kasallikkleri va zararkunandalarini paydo bo'lishini hamda tarqalishini bashorat qilish;

Ilmiy tadqiqot faoliyat;

-dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlardan o'tkazish;

-ilmiy tadqiqot ishlari hisobotlari uchun ma'lumotlar tayyorlash;

-yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, o'z ustida ishlash va ilmiy asosda ish faoliyatini tashkil etish;

-qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sisatiga javob berish;

-respublika hamda xorijda chop etilgan qishloq xo'jaligi sohasi va o'simliklar himoyasi va karantiniga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rGANISH;

-o'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

-mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

-ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Tadbirkorlik.

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

-davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyat doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvurga ega bo'lishi.

2.2.Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

-qishloq xo‘jaligida innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash, “aqli qishloq xo‘jaligi” (Smart agriculture) va raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘s himcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

bakalavriat, o‘simlik, zararli organizmlar, kasallik, zararkunanda va begona o‘tlar, o‘simliklar klinikasi, o‘simliklarni himoya qilish, o‘simliklar karantini, aqli qishloq xo‘jaligi (Smart agriculture), biznes-loyiha, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv rejasi va fan dasturi, o‘quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-izlanish, servis xizmati, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta’lim, texnologik ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat atestatsiyasi, mustaqil ta’lim, o‘quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

KELISHUV VARAG'I



ISHLAB CHIQILDI:
Tashkent davlat agrar universiteti
Rector B.Sulaymonov
19.08.2021

K E L I S H I L D I:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limi
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalar institutiga etish markazi

Direktor M.Esonov
M.O'.
2021 yil « 24 » 08

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirining iqtisod,
innovatsion rivojlanish
va investitsiyalar masalalari bo'yicha
Maslahatchi

A.Shukurov
2021 yil « 20 » 08
M.O'.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O'simliklar Karantini Davlat
inspeksiyasi

Boshlig'i o'rinnbosari
B.Murodov
« 08 » 2021 yil

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi
va agrotexnologiyalar instituti
Rektori

K.Kamilov
K.Kamilov
M.O'

O'simliklarni himoya qilish ilmiy-
tadqiqot instituti

Direktor X.Shukurov
2021 yil « 19 » 08

M.O'.

"IFODA AGRO KIMYO HIMOYA"
MCHJ

Toshkent viloyati filiali menejeri
X.Sh.Islamov

